

Qumqo'rg'on tumanida 2 ta bog'cha foydalanishga topshirildi

Qumqo'rg'on tumani Mehrobod mahallasida 90 o'rinli, 4-Hurriyat mahallasida 140 o'rinli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirildi.

Ta'lim tashkilotlarining ochilishiga bag'ishlangan tadbirda tuman hokimi, sektor rahbarlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillar, nuroniylar va ota-onalar ishtirok etdi.

Mehrobod mahallasida 327 nafar 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar mavjud bo'lib, ularning 120 nafari ushbu davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olindi. Jumladan, 90 nafari kuni uzaytirilgan, 30 nafari qisqa guruhlariga qabul qilindi. Ta'lim tashkilotida hududdagi 20 nafar pedagog va ishchi xodimlarning bandligi ta'minlandi.

Hurriyat mahallasidagi 10-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti 1978 yil qurilgan bo'lib, ta'mirtalab holga kelib qolgan edi. 2021 yilda «Obod qishloq dasturi» asosida ta'mirga tushib, 1 mlrd. 800 mln. so'm mablag' evaziga qayta ta'mirlanidi va qamrovi oshirildi.

Ta'lim tashkilotida mahalladagi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 398 nafar bolajonlarning 140 nafari kuni uzaytirilgan, 50 nafari qisqa guruhlariga qamrab olindi.

Ma'lumot o'rinida, Qumqo'rg'on tumanida 5 yil avval 18 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud bo'lib, hozirda bu ko'rsatgich 221 taga yetkazildi hamda bog'chalarda 11 522 nafar bolajonlar qamrab olingan.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati